

“SHUM BOLA” QISSASIDA UCHRAYDIGAN KISHILARGA NISBATAN QO‘LLANILADIGAN LEKSEMALARNING SEMANTIK TAHLILI

Muhammadiyeva Madina Do‘smamat qizi,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tayanch doktoranti

E-pochta: muhammadiyevamadina495@gmail.com

ORCID ID:0009-0002-0384-0155

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shum bola asarida kishilarga nisbatan qo‘llanilgan leksemalarning semantik xususiyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida yo‘lboshchi, birodar, beva, meshkob, xo‘shmo‘ylov, nuroniy, pahlavon, mug‘ombir, juvonmarg, bekorchi, murid, qarag‘im, kamina, olomon kabi leksemalarning lug‘aviy va kontekstual ma‘nolari ochib berildi. Tadqiqotda insonni ifodalovchi leksemalar ijtimoiy maqom, yosh, qarindoshlik, kasb-hunar, tashqi ko‘rinish, ruhiy-emotsional holat hamda xarakter-xususiyat semalari bo‘yicha tasniflanadi. Shuningdek, ushbu birliklarning qahramon xarakterini yaratish, ijtimoiy muhitni ifodalash hamda muallifning baholovchi munosabatini aks ettirishdagi o‘rni yoritildi. Tadqiqot natijasida kishi nomlovchi leksemalar asarning badiiy-estetik ta‘sirchanligini oshiruvchi muhim semantik vositalardan biri ekanligi aniqlandi.

Kalit so‘zlar: Shum bola, semantika, leksema, kishi nomlovchi leksemalar, leksik semantika, pragmatika, badiiy matn, semantik tahlil, kontekstual ma‘no, emotsional-ekspressiv birliklar.

Аннотация. В данной статье проанализированы семантические особенности лексем, употреблённых по отношению к людям в произведении *Shum bola*. В ходе исследования были раскрыты словарные и контекстуальные значения таких лексем, как йўлбошчи, биродар, бева, мешкоб, хўшмўйлов, нуроний, пахлавон, мугомбир, жувонмarg, бекорчи, мурид, қарагим, камина, оломон. В исследовании лексемы, обозначающие человека, классифицируются по семам социального статуса, возраста, родства, профессии, внешнего облика, психоэмоционального состояния, а также характерологических особенностей. Кроме того, освещена роль данных единиц в создании характера персонажей, отражении социальной среды и выражении оценочного отношения автора. В результате исследования было установлено, что лексемы, обозначающие человека, являются одним из важных семантических средств, усиливающих художественно-эстетическую выразительность произведения.

Ключевые слова. *Shum bola*, семантика, лексема, лексемы, обозначающие человека, лексическая семантика, прагматика, художественный текст, семантический анализ, контекстуальное значение, эмоционально-экспрессивные единицы.

Abstract. This article analyzes the semantic features of lexemes used to refer to people in the work *Shum bola*. During the research, both lexical and contextual meanings of lexemes such as yo‘lboshchi (leader), birodar (brother), beva (widow), meshkob (water carrier), xo‘shmo‘ylov (moustached man), nuroniy (elderly respected person), pahlavon (hero/strongman), mug‘ombir (cunning person), juvonmarg (doomed/ruined person), bekorchi (idler), murid (disciple), qarag‘im (my dear), kamina (your humble servant), and olomon (crowd) were examined.

In the study, lexemes denoting people are classified according to semantic features such as social status, age, kinship relations, profession, physical appearance, psychological-emotional state, and character traits. Furthermore, the role of these units in character depiction, representation of the social environment, and expression of the author’s evaluative attitude is highlighted. The results of the study show that person-denoting lexemes are important semantic tools that enhance the artistic and aesthetic expressiveness of the work.

Keywords. *Shum bola*, semantics, lexeme, person-denoting lexemes, lexical semantics, pragmatics, literary text, semantic analysis, contextual meaning, emotive-expressive units.

Kirish. Til jamiyat taraqqiyoti bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan murakkab ijtimoiy hodisa hisoblanadi. Unda xalqning dunyoqarashi, tafakkuri, madaniyati va milliy qadriyatlari o‘z aksini topadi. Tilning lug‘aviy qatlamida esa kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan leksemalar alohida o‘rin egallaydi. Bunday birliklar insonning ijtimoiy mavqei, xarakteri, ruhiy holati, kasbi hamda jamiyatdagi o‘rnini ifodalash bilan birga, muayyan baholovchi va emotsional-ekspressiv ma‘nolarni ham yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan kishi nomlovchi leksemalarni semantik jihatdan o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

Badiiy asarlarda qo‘llanilgan leksemalar yozuvchining individual uslubi, badiiy tasvir vositalari hamda qahramon xarakterini ochib berishda muhim vosita vazifasini bajaradi. Ayniqsa, Shum bola asari o‘zining xalqona tili, jonli tasvirlari va rang-barang leksik birliklari bilan ajralib turadi. Asarda uchraydigan yo‘lboshchi, birodar, beva, meshkob, xo‘shmo‘ylov, nuroniy, pahlavon, mug‘ombir, juvonmarg, bekorchi, murid, qarag‘im, kamina, olomon kabi leksemalar nafaqat nominativ vazifani bajaradi, balki qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishi, ichki dunyosi va muallifning ularga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi.

Adabiyotlar tahlili. Kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan leksemalarning semantik xususiyatlarini o‘rganish o‘zbek tilshunosligining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur mavzu bo‘yicha asosan, leksikologiya, semantika, pragmatika hamda antropotsentrik tilshunoslik doirasida o‘zbek tilshunoslaridan: Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev, Nizomiddin Mahmudov, Ergash Begmatovlarning olib borgan ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Xususan, Nizomiddin Mahmudovning ilmiy ishlari matn semantikasi va pragmatika bilan bog‘liq bo‘lib, unda til birliklarining kontekstual ma‘nolari keng tahlil qilingan. Olimning qarashlari badiiy matnda qo‘llanilgan leksemalarning emotsional-ekspressiv xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorijiy tilshunoslaridan John Lyons semantika nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan bo‘lsa, George Lakoff inson tafakkuri va til munosabatini kognitiv yondashuv asosida izohlagan. Ularning ilmiy qarashlari kishi nomlovchi leksemalarni semantik va konseptual jihatdan tahlil qilishda nazariy asos vazifasini bajaradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Shum bola asarida kishilarga nisbatan qo‘llanilgan leksemalarning semantik xususiyatlarini o‘rganishda zamonaviy tilshunoslikning bir qancha tahliliy metodlaridan foydalanildi:

Tavsifiy metod – leksemalarning semantik xususiyatlari va matndagi vazifasini izohlashda;

Semantik tahlil metodi – so‘zlarning asosiy va ko‘chma ma‘nolarini aniqlashda;

Kontekstual tahlil – leksemalarning badiiy matn tarkibida hosil qilgan emotsional-ekspressiv ma‘nolarini ochib berishda;

Pragmatik tahlil – muallifning qahramonlarga munosabati va baholovchi semalarni aniqlashda;

Guruhlash metodi – leksemalarni ijtimoiy mavqe, xarakter, murojaat va baholash semalariga ko‘ra tasniflashda qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini Shavkat Rahmatullayev, Azim Hojiyev, Nizomiddin Mahmudov, John Lyons hamda George Lakofflarning semantika va leksikologiyaga oid ilmiy qarashlari tashkil etdi.

Mazkur metodologik yondashuv asardagi kishi nomlovchi leksemalarning semantik tabiati, uslubiy xususiyatlari hamda badiiy-estetik vazifasini kompleks tarzda yoritish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida kishilarga nisbatan qo‘llaniladigan leksemalarni quyidagi semantik guruhlariga ajratib tahlil qilindi:

1. Shaxs nomlari va ijtimoiy maqom bildiruvchi leksemalar: *fuqaro, odam, kishi, o‘rtoq, qo‘shni, merosxo‘r, guvoh, mas‘ul, yo‘lboshlovchi, shinavanda.*

Mazkur guruh jamiyatning ijtimoiy tuzilishini ifodalovchi asosiy semantik qatlam hisoblanadi. “Fuqaro”, “odam”, “kishi” leksemalari umumiy inson konseptini ifodalab, neytral semantikaga ega bo‘lsa, “o‘rtoq” va “qo‘shni” birliklari ijtimoiy yaqinlik va mahalla madaniyatini aks ettiradi. “Mas‘ul” va “yo‘lboshlovchi” birliklari esa ijtimoiy funksional rollarni ifodalaydi.

Yo‘lboshchi. 1) Biror sinf, partiya yoki ijtimoiy harakatning g‘oyaviy va siyosiy rahbari; yirik rahbar, boshliq. 2) Yo‘l boshlovchi, boshlab boruvchi. 3) Yo‘lboshchilik, yo‘lboshchi bo‘lish, boshqaruvchilik (O‘TIL, VI, 308). Asarda aynan, yo‘lboshlovchi ma‘nosida kelgan: “*Uzumchi menga yo‘lboshlovchi bo‘lib ko‘rsatib qo‘ydi*” (ShB, 80).

2. Yosh va qarindoshlik bildiruvchi leksemalar: *bola, o‘spirin, yoshlar, kenja, amakivachcha, birodar, bachcha, uvil bola.*

Ushbu guruh oilaviy va ijtimoiy munosabatlarni ifodalovchi muhim semantik qatlamdir. “Bola” leksemasi qissaning markaziy konseptlaridan biri bo‘lib, beg‘uborlik va erkinlik semalarini ifodalaydi. “Kenja” leksemasi Sharq oilaviy tizimidagi yosh ierarxiyasini ko‘rsatadi. “Birodar” esa yaqinlik, sadoqat va ijtimoiy birdamlik konseptini ifodalaydi.

Birodar بىرادر – forscha so‘z bo‘lib bir qancha ma‘nolarda qo‘llaniladi: a) aka yoki uka; og‘a yoki ini; b) faoliyati, qarashlari, munosabatiga ko‘ra o‘zaro yaqin shaxs; hamdam, do‘st; d) o‘rtoq, og‘ayni (murojaatda): “*O‘g‘ri degan bachchag‘ar o‘ziga esipast – tentakni sherik qilib olmaydi, axir, o‘g‘rining ham siri bor, o‘zidan qo‘rqadi, birodarlar, – debdi*” (ShB, 64); e) birodari aziz, aziz do‘stim, og‘aynim: “*– Birodarlar, bu mening do‘stim edi, o‘g‘ri odam emas edi*” (ShB, 153);

f) birodar (erkaklar ismi) (O‘TIL, I, 486).

Birodar leksemasi asos bo‘gan va bir-birga yaqin semantik ma’no anglatadigan bir qancha so‘zlar mavjud: *birodarlarcha, birodarlashmoq, birodarlik, birodarona, birodarzoda* (O‘TIL, I, 487).

3. Oilaviy va ijtimoiy holat bildiruvchi leksemalar: *beva, yetim, befarzand, er-xotin.*

Mazkur birliklar ijtimoiy status va oilaviy holatni ifodalaydi. Ayniqsa, “yetim” leksemasi kuchli emotsional yuklamaga ega bo‘lib, ojizlik va ijtimoiy himoyasizlik semalarini bildiradi.

“Befarzand” leksemasi esa Sharq mentalitetida salbiy baholash bilan bog‘liq bo‘lib, oilaviy qadriyatlarning muhimligini ko‘rsatadi.

Beva [f. بیهوده – eri o‘lgan yoki taloq qilingan xotin]. Eri yoki xotini o‘lgan va boshqa turmush qilmagan; tul: “*Onam sho‘rlikning beva-kambag‘al ro‘zg‘origa joduday jag‘ bilan borishim o‘zinga ham o‘ng‘aysiz, ularning ham menga ko‘zlari uchib turmagan bo‘lsa kerak*” (ShB, 116). “*Beva onamni, yetimcha singillarimni ko‘p o‘ylayman, ichim achishadi*” (ShB, 117). Bevalik – ersizlik yoki xotinsizlik holati; ersiz yoki xotinsiz o‘tayotgan umr (O‘TIL, I, 427): “*Xotini o‘lib ketib, beva yashaydi. Omon yolg‘iz o‘g‘il*” (ShB, 11).

4. Kasb-hunar va faoliyat bildiruvchi leksemalar: *yo‘lovchi, ishchi, shogird, xaridor, meshkob, otliq, hojattalab, qul.*

Bu guruh jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy funksional qatlamini ifodalaydi. “Shogird” leksemasi ustoz-shogird an‘anasi bilan bog‘liq bo‘lib, ilmiy va madaniy davomiylikni bildiradi.

Meshkob forscha so‘z bo‘lib مشكوب – meshda suv tashuvchi, ko‘cha va bozorlarda mesh ko‘tarib yurib suv sotuvchi kishi ma’nolarini ang‘atadi. *Meshkoblar hammayoqqa suv sepib, salqin qilib qo‘ygan edi* (ShB, 135).

5. Tashqi ko‘rinish va jismoniy belgi bildiruvchi leksemalar: *xushmo‘ylov, novcha, bosh yalang, yalangoyoq.*

Mazkur birliklar portret tasvirini yaratishda qo‘llaniladi. “Yalangoyoq” leksemasi ko‘pincha kambag‘allik va ijtimoiy nochorlik semasini ifodalaydi.

Xushmo‘ylov. Mo‘ylovi chiroyli, mo‘ylovi o‘ziga yarashgan (O‘TIL, VI, 104): “*Childirmaning naqd pulga, bittangayi ashrafga saman ot mingan xushmo‘ylov yigitga pulladik*” (ShB, 26). “*Ichkari tomondan uzun malla to‘n, oq salla, sag‘ri kavush kiygan, qo‘llarida ming donalik tasbeh, ko‘zlariga surma tortgan, uzun mosh-guruch soqolli, xushmo‘ylov, mosh yegan xo‘rozday qizil yuzlaridan “nur yog‘ilib” turgan, Muhammad alayhissalomning to‘qqizinchi xotinlari Bibi Oyishai Kubroning tomdan itarar nabiralari (o‘z da‘volari cha) xast eshon tamannolik bilan yerni “minnatdor bo‘lsang bosaman”, deb chiqib keldilar*” (ShB, 70). “*Eng oxiri kichik, xushmo‘ylov mirshab: – Yaxshi, – dedi, – bu yerda to‘p otilgani qonunan ko‘rinmadi*” (ShB, 184).

6. Yosh va qarilik bilan bog‘liq leksemalar: *kampir, qari, qari-qartang, chol, keksa, nuroniy, Boy buva, rahmatlik.*

Ushbu guruh yosh ierarxiyasi va hurmat konseptini ifodalaydi. “Nuroniy” leksemasi ijobiy baholashga ega bo‘lib, donishmandlik va tajribani bildiradi.

Nuroniy leksemasi نورانی – yorqin, porloq; nurli; fayzli, istarasi issiq, yuzidan nur yog‘ilib turadigan, fayzli, keksa, oqsoqol, veteran (O‘TIL, III, 419) ma’nolarini anglatadi: “Eng oldinda bir nuroniy qalandar, yelkasida kattakon qora qo‘ng‘izni eslatadigan kachkil, beliga anvoi rang-ba rang lattalar bog‘lagan, qo‘lida boshi qaynab bitgan bujg‘un tayoq (Nazar otaning ta‘rifiga qaraganda, bu tayoq hazrati Muso asosining amakivachchasi bo‘lar ekan). Tayoq ko‘targan qalandari barhaq nuroniy, ketmon soqol kishiga pul, non (Bahovad dinniki bo‘lsa yettita, G‘avsul A‘zamniki bo‘lsa o‘n bitta), echki, tovuq, qo‘y, hatto tuyagacha nazr-niyoz qiladilar” (ShB, 67).

7. Xarakter-xususiyat bildiruvchi ijobiy leksemalar: *jasoratli, azamat, fahmli, ixlosmand, pahlavon.*

Mazkur birliklar ideal inson obrazini yaratishda qo‘llaniladi. “Pahlavon” leksemasi xalq epik tafakkuri bilan bog‘liqdir. Pahlavon forscha leksema پهلوان – qahramon, botir, barvasta va zabardast, jismoniy baquvvat, bahodir ma’nolarini anaglatadi. Ko‘chma ma’noda: zabardast, kuchli leksemalari qo‘llaniladi: “Gard arosidan yetmish ikki parokolayi alam, nishonai yetmish ikki ming bayroqdori jar rojar, hammalari haft jo‘sh po‘sh erdi va Maysara tomondan hazrati sohibqironi Abu Muslimi Xurosoniyning pahlavoni gardan koshonlari misoli saddi Iskandardek saf bog‘lab turar erdilar” (ShB, 159-bet).

Bundan tashqari: pahlavonlarcha, pahlavonlar kabi, pahlavonlardek, pahlavonlarga o‘xshab, pahlavonlik botirlik, qahramonlik, baquvvatlik, pahlavonsifat, qomati, quvvati pahlavonlarga o‘xshash, pahlavon gavdali (O‘TIL, III, 620) kabi semantikasi o‘xshash leksemalar ham mavjud: “Pahlavonlarcha jasoratlanib ketgan Omon shartta ko‘ylak-ishtonini yechib, o‘zini hovuzga tashladi-da, sho‘ng‘ib ketgan o‘likni qidira boshladi” (ShB, 49). “– Tizzagacha degani to‘g‘ri, – dedi Hoji bobo, – chunki qoidai pahlavonlik uch zarb bo‘ladi” (ShB, 127).

8. Xarakter-xususiyat bildiruvchi salbiy leksemalar: *makkor, nomard, dayus, padarla‘nat, shakkok, esipast, tentak, mug‘ambir, kazzob, jirkanch, hurmatsiz, o‘zboshimcha.* Bu guruh emotsional-ekspressiv bo‘yoqqa ega bo‘lib, personajni keskin salbiy baholashga xizmat qiladi.

Mug‘ambir مغامر – arabcha leksema bo‘lib tavakkalchi, qaltis ish qiluvchi yoki tushni ta‘birlovchi. Aldoqchilik bilan ish ko‘ruvchi, ayyor, quv (O‘TIL, III, 306) insonga nisbatan ishlatiladi: “Eshon mening yelkamga qoqib, duo qildi va mug‘ambir ko‘zlarini qisib, iljaydi” (ShB, 74). Mug‘ambirona – Mug‘ombirlar kabi, mug‘ombirlik bilan. Mug‘ombirlik – Mug‘ambir kishilarga xos ish, xatti-harakat, quvlik (O‘TIL, III, 306). “Qolgan-qutgan narsalar – Po‘latxo‘ja mug‘ambirdan” (ShB, 12).

9. Ruhiy-emotsional va baholovchi leksemalar: *bechora, badbaxt, juvonmarg, darbadar, kambag'al, gadoy.*

Mazkur birliklar insonning ruhiy holati va ijtimoiy nochorligini ifodalaydi.

Juvonmarg. Ushbu leksema forscha bo'lib uch ma'noda iste'molda mavjud: 1) bevaqt o'lgan, yosh o'lgan, avji yetilgan paytida halok bo'lgan, nobud bo'lgan; 2) qarg'ish ma'nosida, o'lgur, yer yutgur: “– *Agar hammasi bo'lmasa, butun yolg'on qilsang, men xonavayron bo'lar ekanman-da, tur-ey, padaringga la'nat seni, qorning oshga to'ymasin, juvonmarg bo'l! Haydang bu kazzobni!*” (ShB, 88); 3) ko'chma ma'noda barbod bo'lmoq, bekor ketmoq, badnom qilmoq, yo'q qilmoq (O'TIL, II, 696) “– *Hoy, juvonmarg zumrasha, tag'in ko'chagami? Bu yoqqa kel, olovni jo'nashtirib ket, tutay berib ko'zimni ko'r qilayozdi:* (ShB, 13); “– *Juvonmarg, kap-katta bola, uylansang bolang bo'ladi, shu yerda, shunday Fotimai Zahroning dastgohlari bo'lgan qutlug' yerda siyib o'tiribsanmi?*” (ShB, 14)

10. Holat va turmush tarzini bildiruvchi leksemalar: *kashanda, bekorchi, daydi, xo'randa.*

Ushbu birliklar ijtimoiy xulq-atvor va turmush modelini ifodalaydi.

Bekor بېكور – forcha leksema bo'lib ishdan xoli, ishi yo'q, bo'sh, ishsiz, beish (O'TIL, I, 380). Bekorlik – hech narsa bilan shug'ul lanmaslik, ishsizlik, beishlik (O'TIL, I, 381). Bekorchi – ishsiz, bekor yuruvchi, qo'li bo'sh (O'TIL, I, 381). Bekorchixo'ja bekor yuruvchi: “*Ertadan-kech ko'cha changitib, hammaning joniga tegib, kampirlardan qarg'ish eshitib, o'spirinlardan kaltak yeb, sandiroqlab yuradigan uvinto'da bekorchi bolalarmiz*” (ShB, 7-bet). Bekorchi gap. Asos-isboti yo'q gap, tagi puch gap, bo'lmag'ur, yolg'on gap (O'TIL, I, 382). “*Qo'y, biya, tuya, bu gaplar endi ortiqcha ziynat, bekorchi tashvish, yem-xashakni qayerdan topasan? Uning ustiga hovling kichik*” (ShB, 114).

11. Diniy-ma'rifiy qatlamga oid leksemalar: *mulla, mullanamo kishi, murid.*

Mazkur birliklar diniy-madaniy tizimni aks ettiradi. “Mulla” diniy qatlam vakili sifatida ijtimoiy-ma'naviy tizimda muhim o'rin tutadi.

Murid leksemasi diniy-ma'rifiy ierarxiyani ifodalab, Sharq an'analariga xos ustoz-shogird munosabatlarini ko'rsatadi. Murid مريد – arabcha izdosh, ergashuvchi, shogird; sufiylar shogirdi yoki eshon (murshid)ga qo'l berib, sufiylik yo'liga kirgan shaxs (O'TIL, III, 280). “*Eshon ko'z yumib pichirlab bir narsalarni o'qigandan keyin menga qarab quyidagi so'zlarni aytishga buyurdi: “Men falonchi-falonchi o'g'li hast eshonning ixlosmand muridlaridurman, pirimning buyurgan xizmatlarini hech so'z qaytarmasdan bajaraman*” (ShB, 73). Murid ovlamoq – qishloqma-qishloq yurib, muridlarni tovlamoq, ulardan nazr-niyoz yig'moq. “*Ha-ha, endi eshon bo'lib, qishloqma-qishloq murid ovlab yuribsanmi?*” (ShB, 37).

12. Murojaat va subyektiv-baholovchi leksemalar: *qarag'im, kamina.*

Bu birliklar nutq etiketi va subyektiv munosabatni ifodalaydi.

Akang qarag‘ay – o‘z yoki o‘zga shaxsini bo‘rttirib ko‘rsatish, yuqorilash uchun ishlatiladigan ibora (O‘TIL, IV, 62). Asarada fonetik hodisaga uchragan holda o‘zidan kichik insonlarni erkalash ma‘nosida qo‘llanilgan: “– *Voy-bo‘y, qarag‘im, to‘ri jo‘q, g‘albiringni ne qilayin. Keytayin, olsam olayin. Boldar o‘ynab jurar. Ne berayin, ne so‘raysinlar?*” (ShB, 26).

Kamina كمينه – forscha kichik, e‘tiborsiz, faqir; faqir qulingiz va kamtarlik yoki odob yuzasidan “men” so‘zi o‘rnida ishlatiladi (O‘TIL, II, 735). “*Bir rivoyatda shu g‘ingshiyotgan kaminaning o‘zlari emishman*” (ShB, 72).

Sodiq xizmatkor, qul (O‘TIL, II, 736) ma‘nosida kelgan: “*Kamina qalandarvachcha kavshandozda qo‘l qovushtirib, tavoze bilan xizmatlariga intizor bo‘lib turdim*” (ShB, 70). Asarda o‘zini maqtash, ulug‘lash ma‘nosida ham kelgan: “*Boyadki, kaminani tanib qo‘yg‘aylar. Aslim Buxoroning Qo‘zagaron mahallasidandurman*” (ShB, 170).

13. Jamiyat va jamoa bilan bog‘liq leksemalar: *olomon, sherik.*

Mazkur birliklar kollektiv ong va jamoaviy munosabatni ifodalaydi.

Olomon – to‘plangan odamlar, xaloyiq (O‘TIL, III, 477). “– Shariatimizdan aylanay, musulmonchiligimizdan aylanay, himoyatimizdan, hamiyatimizdan aylanay, *olomondan* aylanay. Ana shunday musulmon hamiyatlik *olomon* bo‘lganda, hammamiz ham eshigimizni baralla ochib uxlay bersak bo‘ladi. Birorta o‘g‘ri yoki qo‘li egrining haddi bor mikin, bir musulmonning mulkiga, nomusiga taaddi qilsa. *Olomondan* o‘rgilay, – dedi giyohvandlardan bittasi, – yo monlar jazosini tortsin” (ShB, 154).

Olomon qilmoq. Sudsiz-boshqasiz ko‘plashib urmoq, urib o‘ldirmoq (O‘TIL, III, 477). “*Hash-pash deguncha o‘laksa qilib, machitning sahniga olib chiqadilar, bu yerda ham ko‘ziga qon to‘lgan olomon sho‘rlikni ura ketadi, o‘ldirib xotirjam bo‘lgandan keyin: – O‘zi nima gap, nima qildi, kim boshlab urdi, kim ushladi, kimning hamyoni, – degan gaplar chiqa boshlaydi*” (ShB, 135).

Xulosa. Shum bola asarida kishilarga nisbatan qo‘llanilgan leksemalar o‘zining semantik boyligi, ekspressivligi hamda milliy-madaniy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Tadqiqot davomida yo‘lboshchi, birodar, beva, meshkob, xo‘shmo‘ylov, nuroniy, pahlavon, mug‘ombir, juvonmarg, bekorchi, murid, qarag‘im, kamina, olomon kabi leksemalar semantik jihatdan tahlil qilinib, ularning asar mazmunini ochishdagi o‘rni aniqlandi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur leksemalar nafaqat shaxs nomlash vazifasini bajaradi, balki qahramonlarning ijtimoiy mavqei, ruhiy holati, xarakteri va muallifning ularga bo‘lgan munosabatini ham ifodalaydi. Xususan, mug‘ombir, bekorchi, meshkob kabi leksemalarda salbiy baholash semasi kuchli bo‘lsa, birodar, nuroniy, qarag‘im singari birliklarda ijobiy-emotsional ma‘no ustunligi kuzatiladi. Shuningdek, kamina, murid kabi leksemalar sharqona nutq madaniyati va tarixiy-uslubiy qatlam bilan bog‘liq holda qo‘llangan. Asarda uchraydigan kishi nomlovchi leksemalar o‘zbek xalqining milliy

tafakkuri, ijtimoiy muhiti va davr ruhini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Shu jihatdan ularning semantik tahlili nafaqat badiiy matn tilini, balki o'zbek tilining leksik-semantik imkoniyatlarini o'rganishda ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shum bola. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2018. — 224 b.
2. Rahmatullayev Sh.. Hozirgi o'zbek adabiy tili. — Toshkent: Universitet, 2006. — 476 b.
3. Hojiyev A.. O'zbek tili leksikologiyasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1981. — 198 b.
4. Mahmudov N.. Til va jamiyat. — Toshkent: Ma'naviyat, 2009. — 192 b.
5. Begmatov E.. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. — Toshkent: Fan, 1985. — 236 b.
6. O'zbek tilining izohli lug'ati: 5 jildli. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
7. Lyons John. Semantics. — Cambridge: Cambridge University Press, 1977. — 897 p.
8. Lakoff George. Women, Fire, and Dangerous Things. — Chicago: University of Chicago Press, 1987. — 632 p.
9. Mahmudov N.. O'zbek tilida mazmuniy sintaksis va matn semantikasi muammolari: Filol. fan. d-ri ... diss. — Toshkent, 1992. — 250 b.
10. Rahmatullayev Sh.. Hozirgi o'zbek tilida leksik ma'no va polisemiya masalalari: Filol. fan. d-ri ... diss. — Toshkent, 1971. — 310 b.
11. Safarova N.. O'zbek tilida shaxs nomlari semantikasi: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Toshkent, 2018. — 145 b.
12. Xudoyberdiyeva D.. Antropotsentrik tilshunoslikda inson konsepti va uning til birliklarida ifodalanishi: Filol. fan. d-ri ... diss. — Toshkent, 2016. — 260 b.
13. Abdurahmonova G.. Badiiy matnda shaxsga oid leksemalarning pragmatik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Samarqand, 2020. — 156 b.
14. Iskandarova S.. O'zbek tilida baholovchi leksemalarning semantik tahlili: Filol. fan. bo'yicha falsafa doktori (PhD) diss. — Buxoro, 2019. — 148 b.

Uyushgan atindagi
NOKIS MAMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI
N M P I
1934